

Belgilab berilgan vazifalar ijrosi yuzasidan 2022-yilning II- choragida amalga oshirilgan ishlar

Farg‘ona viloyati statistika boshqarmasining Kengashining kengaytirilgan yig‘ilishini boshqarma boshlig‘I v.b. Sh. Mamadaliyev ochib berdi va yig‘ilish kun tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 - yil 22 yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga doir Davlat Dasturi” doirasida tizim oldiga belgilab berilgan topshiriqlarni so‘zsiz, sifatli va o‘z muddatida ijrosini ta‘minlash borasida 2022-yilda amalga oshirilgan ishlar hamda statistika organlari oldida turgan kelgusidagi ustuvor vazifalar haqida gapirib o‘tdi.

Shuningdek, Statistika dasturi doirasida boshqarma va uning hududiy statistika organlari tomonidan 2022-yilning II choragida amalga oshirilgan ishlar, pirovardida ishlab chiqilgan tahliliy-statistik ma‘lumotlarni keltirib o‘tdi.

Jumladan, dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-iyunida Farg‘ona viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot hajmi joriy narxlarda 24 650,4 mlrd. so‘mni tashkil etdila 2021-yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 4,1 %ga o‘tdi. YAHM deflyator indeksi 2021-yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 115,4 %ni tashkil qildi. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Farg‘ona viloyatining qo‘shgan hissasi 6,3 %ga yetdi.

Viloyat korxonalarini tomonidan 2022-yilning yanvar-iyun oylarida Farg‘ona viloyati korxonalarini tomonidan 13 918,1 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 106,6 % ni tashkil etdi.

2022–yilning yanvar–iyun oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 13813,0 mlrd. so‘mni yoki 2021–yilning mos davriga nisbatan 102,4 %ni tashkil etdi.

Ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar va tashkilotlar soni 2022-yilning 1-iyul holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) **52 174** tani tashkil etib, ulardan **49 303** tasi yoki **94,4** % i faoliyat ko‘rsatmoqda. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda **4 537** ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10,2 trln. so‘mni, 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘shir sur‘ati **115,4** % ni tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 10,8 trln so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan **107,6** % ga oshdi. Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 1 049,5 mln. AQSH dollarini, jumladan eksport – 417,0 mln. AQSH dollari va import – 632,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylariga, Farg‘ona viloyatida jami 3 950,6 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘shir sur‘ati 2021- yilning yanvar- iyun oylariga nisbatan 109,0 %ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni 3 931,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 34,7 ming kishiga yoki 0,9 %ga o'sdi.

Farg'ona viloyatida 2022-yilning yanvar-iyun oylarida investitsion faollikni oshgani kuzatilib, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 126,1 %ni tashkil etdi. 2022-yilning yanvar-iyun oylarida 7 182,5 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 67,9 %i yoki 4 879,7 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 32,1 % yoki 2 302,8 mlrd. so'm moliyalashtirildi.